



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI KENGASHI
QARORIDAN KO‘CHIRMA**

Toshkent shahri

2023-yil 1-noyabr

Qaror № 3

KUN TARTIBI:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor-o‘qituvchilarining O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan e‘lon qilingan Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zolikiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etishi to‘g‘risida

Eshitildi: Ushbu masala yuzasidan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, Kengash raisi K. Sharipov so‘zga chiqib, shuni ta’kidladiki, Eshov Mansur Pulatovich – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lib, oliy ta’lim tizimida rahbarlik lavozimlarida ishlab kelmoqda, jumladan, bugungi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor lavozimida faoliyat olib bormoqda. Jami 23 yillik mehnat stajiga ega. Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

U Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi hamda Menejment, marketing, tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy kengash a‘zosi. Uning rahbarligida 11 ta tadqiqotchi falsafa doktori va 2 ta tadqiqotchi fan doktori dissertatsiyasini himoya qilgan.

Akademik faoliyatni to‘g‘ri tashkil qilish, talaba-yoshlarning o‘quv-uslubiy ishlarga yo‘naltirishning o‘ziga xos yo‘lini tanlagani va ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tizimini ishlab chiqqani natijasida, bevosita uning rahbarligida 2020-2023-o‘quv yillarida 2 nafar talaba O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sovrindori, 3 nafar talaba nomdor davlat stipendiyasi sovrindori va 10 nafar talaba respublika fan olimpiadasi g‘olibi bo‘lgan.

U xorijiy ilmiy loyihalarda faol ishtirok etadi, jumladan, 2018-2022-yillarda amalga oshirilayotgan Yevropa Komissiyasining Erasmus+ dasturining 598092-ERR-1-2018-1-BG-EPPKA2-CBHE-SP “HIEDTECH: Modernization of higher education in Central Asia through new technologies”(Markaziy Osiyoda Oliy ta’lim tizimini yangi texnologiyalar orqali rivojlantirish) loyihasida ishchi guruhida ekspert sifatida ishtirok etgan.

Shu bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi tomonidan amalga oshirilayotgan 00131109-sonli “2-bosqich: Qozog‘iston, O‘zbekiston va Qirg‘izistonda ta’lim va malaka oshirish orqali afg‘on ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishni qo‘llab-quvvatlash” mintaqaviy loyihasida ijodiy jamoa a‘zosi sifatida faoliyat yuritmoqda (2022-2024-yy.).

Eshov Mansur Pulatovich Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan amaliy, innovatsion va fundamental loyihalar rahbari hisoblanadi. Jumladan, 2018-2020-yillarda amalga oshirilgan PZ-20170928535-sonli “O‘zbekistonda investitsiya fondlarining o‘ziga jalb etish mexanizmini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihada ijodiy jamoa a‘zosi sifatida faoliyat yuritgan.

2023-2026-yillarga mo‘ljallangan IL-5421101758-sonli “Alternativ moliya ekotizimini shakllantirish orqali dualistik tizim milliy modelini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyihada vaqtinchalik ilmiy-ijodiy jamoa a‘zosi hisoblanadi.

Mansur Pulatovich Eshov mustaqil ravishda ilmiy tadqiqotlarini amaliyot bilan uyg'unlikda olib borish yo'lida yuqori malakali mutaxassis ekanligini tasdiqlagan, tadqiqotlari amaliyotga joriy etiganligi to'g'risida 10 ga yaqin ma'lumotlar olingan, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Xalqaro statistika institutining doimiy a'zosi va xalqaro ilmiy jurnallarda tahririyat a'zosi sifatida faoliyat yuritishi buning isbotidir.

Eshov Mansur Pulatovich ko'plab ilmiy-uslubiy asarlar muallifi hamdir. Ularning umumiy hajmi 1000 bosma taboqdan oshadi. U rus, o'zbek, ingliz tillarida ilmiy monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarni chop etgan.

Eshov Mansur Pulatovich tomonidan "Investitsiya va innovatsiyalar" darsligi 2023-yilda chop etilgan bo'lib, undan iqtisodchi kadrlar tayyorlovchi barcha oliy o'quv yurtlarida asosiy darslik sifatida foydalanilmoqda. Uning rahbarligida 2016-2023-yillar mobaynida 15 ga yaqin Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi. Shuni ham ta'kidlash joizki, prof. M.P.Eshovning ilmiy ishlari xalqaro ilm-fan manbalari indeksiga ham ega. Jumladan, Google scholar da 60 ga yaqin maqolalari turli xorijiy tillarda chop etilgan bo'lib, iqtiboslar 2232 tani, Xalqaro Scopus ilmiy bazasidagi ilmiy ishlari 4 ta bo'lib, iqtiboslar 3, xirsh indeksi esa 3 ga teng. Web of Science xalqaro ma'lumotlar bazasi 82 ta ixtibos keltirilgan, Xirsh indeksi 1 ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan e'lon qilingan Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etish bo'yicha sanoq komissiyasi tuzildi va uning tarkibi quyidagicha belgilandi:

Rais: Xudoyqulov S.K., a'zolar: Sobirov O.Sh. va Amirov L.F. tasdiqlandi.

Universitet Kengashi majlisida 75 nafar Kengash a'zosidan 71 nafari tanlovda ovoz berishda ishtirok etdi.

Ovoz berish natijalariga ko'ra, 71 kishi – rozi, qarshilar – yo'q, betaraflar – yo'q. Bir ovozdan qabul qilindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, UNIVERSITET KENGASHI QAROR QILADI:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, Kengash raisi K. Sharipovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Eshov Mansur Pulatovich O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan e'lon qilingan Fanlar akademiyasining haqiqiy a'ziligiga (akademiklikka) tanlovda ishtirok etishga tavsiya etilsin.
3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

**Ko'chirma asliga to'g'ri,
Kengash kotibi**

